

Бодрингнинг “Ғалаба” навини яратилиши.

№	Қўчатзорлар номи	Йиллар
1	Тизмаларни бирламчи манба қўчатзорида ўрганиш	2010-2014 й.й.
2	Тизмаларда якка танлаш ўтказиш, J ₃ –J ₅ инцухт тизмалар олиш, диаллель чатиштириш, дурагай комбинацияларда умумий ва ўзига хос комбинацион қобилятини ўрганиш.	2015-2020 й.й.
3	«Ғалаба» нави давлат нав синовида	2021-2022 й.й.
4	«Ғалаба» нави патент олинди	2022-й.

Хулоса. Таҷрибалар натижасига қўра, оналик гулларининг эрта очилиши, тупдаги мевалар сони белгиси бўйича С-25/1 х С-26 дурагай комбинациялари ажратиб олинди ва шу асосида

“Ғалаба” нави яратилди. Ушбу нав сабзавотчиликка ихтисослашган фермер хўжаликларида жорий этилиб, ундан сифатли ва мўл ҳосил олишга эришилмоқда.

АДАБИЁТЛАР:

1. Хакимов Р.А., Борасулов А.М. Бодринг ун- шудринг ва переноспориоз касаллигига чидамли навлар селекцияси. “Ўзбекистонда сабзавотчилик, полизчилик ва картошқачиликни ривожлантиришда илм-фаннинг ҳиссаси”. Халқаро илмий-амалий конференция, Тошкент.2013 й. 30-34 б.
2. Борасулов А.М. Ун- шудринг касалликларида чидамли бодринг селекцияси. “Агро илм” журналы № 2. 2017. 81-82 б.
3. Пивоваров В.Ф., Кононкова П.Ф. Рекомендации и методические указания по селекции и семеноводству огурца. – М.: ВНИИССОК, 1999.
4. О.В.Юрина, В.Ф.Пивоваров, Н.Н.Балашова “Селекция и семеноводство тыквенных культур в России” Москва-1998.
5. Griffing B. Concept of general and specific combining ability in relation to diallel crossing systems. // Aust. J. Biol. Sci. – 1956. – Vol. 13 (2). – P. 307-343.

УОЎТ: 635.261+ 631.53.04

POREY PIYOZI NAV NAMUNALARINING HOSILDORLIGI

Vaxidov Sarvarbek To‘lanboy o‘g‘li,

Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti doktranti.

Annotatsiya. Maqolada Farg‘ona vodiysi tuproq-iqlim sharoitiga mos porey piyoz nav namunalarini tanlashda eng yuqori umumiy (barg+soxta poya) hosildorligi Osenniy gigant (96,6 t/ga), Premyer (88,6 t/ga), Elephant MS (87,6 t/ga), Vesta (85,2 t/ga) va Kolambus (83,5 t/ga) hamda eng yuqori tovarbop (soxta poya) hosil Osenniy gigant (57,8 t/ga), Vesta (51,4 t/ga) va Elephant MS (51,3 t/ga) navlarida aniqlanganligi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: porey piyozi, umumiy hosildorlik, soxta poya hosili, soxta poya diametri.

Аннотация. В статье приводятся данные по подбору сортов образцов лук-прея для почвенно-климатических условий Ферганской долины по наибольшей общей урожайности (лист + ложный стебель) Великан Осенний (96,6 т/га), Премьер (88,6 т/га), Элефант МС (87,6 т/га), Веста (85,2 т/га) и Колумб (83,5 т/га) и самый высокий товарной (ложностебельный) урожайностью Осенний Великан (57,8 т/га), Веста (51,4 т/га) и Элефант МС (51,3 т/га).

Ключевые слова: лук-порей, общий урожай, урожайность ложных стеблей, диаметр ложных стеблей.

Abstract. In the article, the highest total yield (leaf + false stem) in the selection of leek onion cultivars suitable for the soil-climate conditions of the Fergana Valley is Autumn Giant (96.6 t/ha), Premier (88.6 t/ha), Elephant MS (87,6 t/ha), Vesta (85.2 t/ha) and Columbus (83.5 t/ha) and the highest marketable (false stem) harvest Autumn Giant (57.8 t/ha), Vesta (51, 4 t/ha) and Elephant MS (51.3 t/ha) were revealed

Key words: leek, total yield, false stem yield, false stem diameter.

Kirish. Dunyoda sabzavot ekinlari assortimenti kengaytirish zamonaviy sabzavotchilikning dolzarb vazifasi hisoblanadi. Bu muammoning yechimi sifatida O‘zbekistonda hosildorligi yuqori, sovuqqa, kasallik va zararkunandalarga chidamli porey piyoz (*Allium porrum* L.) turini ishlab chiqarishga joriy etish muhim hisoblanadi. Piyozli ekinlar orasida porey piyozi (*Allium porrum* L.) alohida o‘rin tutib, dunyo bo‘yicha porey piyozi 2 239,8 ming tonna mahsulot yetishtiriladi. Porey piyozi hosilini ishlab chiqarish bo‘yicha Indoneziya (638,7 ming t.), Turkiya (225,5 ming t), Fransiya (168,4 ming t), Janubiy Belgiya (147,1 ming t), Koreya (148,1 ming t), Xitoy (119,0 ming t) davlatlari yetakchi

hisoblanadi [1]; [2].

Porey piyozining yovvoyi va madaniy shakllari o‘shish joylarida turli xil mahalliy nomlarni olgan, masalan, Gretsiya va Turkiyada porey piyoz “prason”, “pras”, arab aholisi uni “kurat”, Ozarbayjonda “chever”, Gruziyaga Gretsiyadan kirgan porey piyoz yunoncha “prasa” nomi bilan atalgan. Gruziya va Armanistonda porey piyozning 3 ta shakli mavjud bo‘lib, ular Tiamula, Gveso va Prasa domashnyaya deb atalgan. Porey piyozning nemischa nomi “roggeye”, inglizcha – “leek” [3]; [4].

Biroq, porey piyozi O‘zbekistonda, xususan, Farg‘ona vodiysi tuproq-iqlim sharoitida keng tarqalmagan bo‘lib, bunga sabab

rayonlashtirilgan navlarning yetishmasligi hamda yetishtirish texnologiyasini ilmiy asoslanmaganligidir. Shu sababli, respublikada porey piyozi o'simligi xorijiy seleksiya manbalarini o'rganish va ishlab chiqarishga joriy qilish maqsadida ilmiy-tadqiqot ishlari olib borildi.

Tadqiqot materiallari va uslublari. Tadqiqot ishida porey piyozi o'simligini xorijiy seleksiyasiga mansub "Karantanskiy" (st), "Vesta", "Jiraf", "Zimniy gigant", "Kazimir", "Kamus", "Kolambus", "Letniy briz", "Osenniy gigant", "Pobeditel", "Premyer", "Elefant MS" navlari hamda "Lincoln F1" duragayi o'simligi, bargi va soxta poya hosilli xizmat qilgan.

Porey piyozi navlari qaytariqsiz 5 m² maydondan har bir namunada 20 dona o'simliklarda olib borildi. Porey piyozini 40 kunlik ko'chatidan yetishtirishda navlarning muhim morfobiologik va qiymatli xo'jalik belgilari baholanadi.

Dala tajribalari «Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilikda tajribalar o'tkazish metodikasi» (Azimov B.J., Azimov B.B., 2002), «Metodika polevogo opita v ovoshevodstve i baxchevodstve» (Belik V.F., 1992) va «Metodicheskiye ukazaniya po izucheniyu kolleksii luka i chesnoka» (Kazakova A.A., Borisenkova L.S., 1986) uslubiy qo'llanmalari asosida olib borildi, tadqiqot natijalarining statistik tahlili «Excel 2010» va «Statistica 7.0 for Windows» kompyuter dasturida, 0,95% ishonchlilik oralig'i bilan «Metodika polevogo opita» (Dospexov B.A., 1985) dispersion usuli bo'yicha hisoblandi.

Natijalar va ularning tahlili. Farg'ona vodiysi tuproq-iqlim sharoitida yetishtirishga mos porey piyozi nav namunalari tanlash bo'yicha 2021-2023 yillarda amalga oshirilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, eng yuqori umumiy (barg+soxta poya) hosildorlik Osenniy gigant (96,6 t/ga), Premyer (88,6 t/ga), Elefant MS (87,6 t/ga), Vesta (85,2 t/ga) va Kolambus (83,5 t/ga) navlarida bo'lib, Karantanskiy (st) naviga (59,8 t/ga) nisbatan (mos ravishda) – 36,8; 28,8; 27,8; 25,4 va 23,7 t/ga yuqori bo'lganligi aniqlandi (jadval).

Umumiy hosildorlikda Karantanskiy (st) naviga nisbatan 30,9-10,0 % yoki 18,5; 6,7 va 6,0 t/ga yuqor barg+soxta poya hosildorlikni Lincoln F1 (78,3 t/ga) duragayi, Zimniy gigant (66,5

t/ga) va Jiraf (65,8 t/ga) navlari namoyon qildi. Biroq, 2021-2023 yillarda davomida olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, eng kam umumiy hosildorlikni Kazimir (59,6 t/ga), Letniy briz (58,2 t/ga), Kamus (58,1 t/ga) va Pobeditel (55,8 t/ga) navlarida shakllangan bo'lib, Karantanskiy (st) naviga nisbatan mutanosib ravishda maydon birligidan – 0,2; 1,6; 1,7 va 4,0 tonna kam bo'lganligi aniqlandi. 2021-2023 yillar bo'yicha o'rta umumiy hosildorlik ko'rsatkichlari matematik va statistik ishlov berilganda $EKF_{05} = 2,2$ t/ga va $Sx_{\%} = 3,1$ % ni tashkil qildi.

Umumiy hosildagi barg va soxta poya ulushi tahlil qilinganda, Karantanskiy (st) navida barg va soxta poya ulushi – 43,8 % va 56,2 % yoki 2,3:1,7 nisbatda bo'lganligi aniqlandi. Eng yuqori soxta poya ulushi Vesta navida ekanligi aniqlandi (60,4 %). Shuningdek, porey piyozining umumiy hosildorlikdagi soxta poya ulushi 50 % yuqori ko'rsatkichlarni barcha nav namunalari namoyon qilganligi ma'lum bo'ldi.

Umumiy hosildorlik tarkibidagi 2021-2023 yillarda tovarbop (soxta poya) hosil miqdori ham turlicha bo'lib, tovarbop (soxta poya) hosili standart Karantanskiy (st) navida – 33,6 t/ga ni tashkil qilib, unga nisbatan maydon birligidan 24,2-17,7 t eng yuqori tovarbop hosilni Osenniy gigant (57,8 t/ga), Vesta (51,4 t/ga) va Elefant MS (51,3 t/ga) navlarida aniqlandi. Shuningdek, maydon birligidan Premyer navi (48,4 t/ga) – 14,8 t, Kolambus navi (46,8 t/ga) – 13,2 t, Lincoln F1 duragayi (43,3 t/ga) – 9,7 t, Zimniy gigant navi (39,1 t/ga) – 5,5 t, Jiraf navi (38,8 t/ga) – 5,2 t Karantanskiy (st) naviga nisbatan mos ravishda – 44,0; 39,3; 28,9; 16,4 va 15,5 % ga yuqori soxta poya hosil olinganligi ma'lum bo'ldi.

Porey piyozi nav namunalari tovarbop hosilning (soxta poya) 2021-2023 yillar bo'yicha o'rta ko'rsatkichlari matematik va statistik ishlov berilganda $EKF_{05} = 1,3$ t/ga va $Sx_{\%} = 3,1$ % ni tashkil qildi.

Tovarbop hosildagi soxta poya diametri bo'yicha taqsimlanishi tahlil qilinganda Karantanskiy (st) navida soxta poya diametri 11-20 mm – 5,6 %, 21-30 mm – 35,7 %, 31-40 mm – 48,5 % va ≥ 40 mm – 10,2 % bo'lganligi aniqlandi. Porey piyozi nav namunalari eng yirik (≥ 40 mm) soxta poya hosili Elefant MS (57,3 %) Osenniy gigant (56,6 %), Vesta (56,5 %), navlarida ekanligi aniqlandi.

1-jadval.

Porey piyoz nav namunalari mahsuldorlik ko'rsatkichlari (2021-2023 yy.).

Nav namunalar nomi	Umumiy hosildorlik, t/ga	Umumiy hosildagi barg va soxta poya ulushi, %			Tovarbop (soxta poya) hosil, t/ga	Tovarbop hosildagi soxta poya diametri bo'yicha taqsimlanishi, %				
		barg	soxta poya	nisbat		≤ 10 mm	11-20 mm	21-30 mm	31-40 mm	≥ 40 mm
Karantanskiy (st)	59,8 $\pm$ 0,8	43,8	56,2	2,3:1,7	33,6 $\pm$ 0,5		5,6	35,7	48,5	10,2
Vesta	85,2 $\pm$ 1,5	39,6	60,4	2,5:1,5	51,4 $\pm$ 0,9			4,2	39,3	56,5
Jiraf	65,8 $\pm$ 1,2	41,1	59,0	2,4:1,6	38,8 $\pm$ 0,7		5,8	42,4	51,8	
Zimniy gigant	66,5 $\pm$ 0,9	41,2	58,8	2,3:1,7	39,1 $\pm$ 0,5		10,4	38,9	50,7	
Kazimir	59,6 $\pm$ 0,9	43,5	56,5	2,3:1,7	33,7 $\pm$ 0,5		45,9	54,1		
Kamus	58,1 $\pm$ 0,7	47,8	52,3	2,1:1,9	30,0 $\pm$ 0,4	5,6	42,5	51,9		
Kolambus	83,5 $\pm$ 1,1	43,9	56,1	2,3:1,7	46,8 $\pm$ 0,6			45,3	49,3	5,4
Letniy briz	58,2 $\pm$ 1,0	42,3	57,7	2,3:1,7	33,5 $\pm$ 0,6		10,7	42,5	46,8	
Osenniy gigant	96,6 $\pm$ 2,0	40,2	59,8	2,4:1,6	57,8 $\pm$ 1,2				43,4	56,6
Pobeditel	55,8 $\pm$ 1,1	44,1	55,8	2,3:1,7	31,1 $\pm$ 0,6		42,8	57,2		
Premyer	88,6 $\pm$ 1,7	45,4	54,5	2,2:1,8	48,4 $\pm$ 0,9			48,4	51,6	
Elefant MS	87,6 $\pm$ 1,4	41,4	58,6	2,3:1,7	51,3 $\pm$ 0,8				42,7	57,3
Lincoln F1	78,3 $\pm$ 1,1	44,7	55,3	2,2:1,8	43,3 $\pm$ 0,6			44,5	50,4	5,1
EKMF ₀₅	2,2	-	-	-	1,3	-	-	-	-	-
Sx _%	3,1	-	-	-	3,1	-	-	-	-	-

Xulosa. Farg'ona vodiysi tuproq-iqlim sharoitida porey piyozdan yuqori tovarbop hosil olishda Osenniy gigant (57,8 t/ga),

Vesta (51,4 t/ga) va Elefant MS (51,3 t/ga) navlarida foydalanish tavsiya etiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Агафонов А.Ф., Медведев И.В. Ценные образцы лука порея для селекции на зимостойкость и высокую продуктивность // Журнал «Картофель и овощи». – Москва, 2008. – № 1. – С. 27-28
2. Борисенкова Л.С. Особенности европейского сортимента лука-порея в связи с использованием его в селекции // Сборник научных трудов по прикладной ботанике, генетике и селекции. – Москва, ВИР, 1986. – Т.102. – С. 116-119.
3. Кирносоева Т.И. Лучшие образцы лука порея в условиях Волго-Ахтубинской поймы // Журнал «Бюллетен ВИР». – Ленинград, 1988. – Вип. 162. – С. 45-50.
4. Круг Г. Овощеводство (учебник). – Москва: Колос, 2000. – 576 с.

SHIRIN QALAMPIRNING YOQUT F₁ DURAGAYI TAVSIFI VA UNI YETISHTIRISH BO'YICHA TAVSIYALAR

Axmedov Baxtiyor Maxammadjonovich,
qishloq xo'jaligi fanlari falsafa doktori (PhD),
Xolmurodova Go'zal Ro'ziyevna,
qishloq xo'jaligi fanlari doktori (DSc), professor.

Annotatsiya. Maqolada yangi yaratilgan Yoqut F₁ geterozis duragayining tavsifi va uni yetishtirish bo'yicha tavsiyalar bayon etilgan. Yoqut F₁ duragayining andoza Lotta F₁ duragayiga nisbatan ertapisharlikda, hosildorlikda ustunligi, kasallik va zararkunandalarga nisbatan bardoshliligi qayd etilgan. Shirin qalampirning Yoqut F₁ geterozis duragayini issiqxonalarda ko'chat usulida ekib yetishtirishning afzalligi, ushbu yangi geterozisli duragay O'zbekistonning barcha viloyatlari issiqxonalarda ekin uchun tavsiya etilishi keltirilgan.

Kalit so'zlar: shirin qalampir, geterozis duragay, ertapisharlik, hosildorlik, kasallik va zararkunandalarga bardoshlilik, ko'chat usuli, urug'chilik, morfologik belgi, tovar mahsulot.

Аннотация. В статье дано описание вновь созданного гетерозисного гибрида Ёкут F₁ и даны рекомендации по его выращиванию. По сравнению со стандартным гибридом Лотта F₁ отмечено превосходство гибрида Ёкут F₁ по скороспелости, урожайности, устойчивости к болезням и вредителям. Преимущество выращивания гетерозиготного гибрида сладкого перса Ёкут F₁ в теплицах рассадным способом, этот новый гетерозиготный гибрид рекомендован к выращиванию в теплицах всех регионов Узбекистана.

Ключевые слова: перец сладкий, гетерозисный гибрид, скороспелост, продуктивность, устойчивость к болезням и вредителям, способ посадки, семеноводство, морфологический признак, товарный продукт.

Abstract. The state document provides a description of the newly created heterotic hybrid Yakut F₁ and gives recommendations for its cultivation. Compared to the standard Lotta F₁ hybrid, the Yokut F₁ hybrid is a better hybrid and I have many diseases and pests. The advantage of growing the heterozygous hybrid sweet pepper Yokut F₁ in a greenhouse using seedlings, but the new heterozygous hybrid is recommended for cultivation in a greenhouse in all regions of Uzbekistan.

Key words: sweet pepper, heterotic hybrid, early ripening, productivity, resistance to diseases and pests, planting method, seed production, morphological trait, marketable product.

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimiz aholisining oziq-ovqat muammosini hal qilishda shirin qalampirning sifatli, transportabelligi yuqori, kasalliklarga nisbatan bardoshli bo'lgan geterozis duragaylarini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Shirin qalampirni boshqa sabzavot ekinlariga nisbatan o'ziga xosligi, mevasini ko'kligida ham, qizarganda ham iste'mol qilish mumkin hamda mevasida A va S vitamininga boy hisoblanadi. Shunga ko'ra biz o'z tadqiqotlarimizda ushbu ekin turiga e'tiborimizni qaratdik.

Tadqiqotlardan asosiy maqsad-shirin qalampirning sifatli, kasalliklarga nisbatan bardoshli, transportabelligi yuqori bo'lgan mahalliy geterozis duragaylarini yaratishdan iborat.

Sapsicum annum L. turiga mansub shirin qalampirning Yoqut F₁ duragayi borasida ishlar Andijon viloyati Oltinko'l tumanida joylashgan "Green Valley seeds" xususiy korxonasi issiqxonasida olib borildi. Ushbu Yoqut F₁ geterozis duragayi dastlab GVS-3007 raqami bilan nomlanib, ushbu raqam yaratilgan duragayning sinonimi hisoblanadi.

Seleksion ishlar 2019 yilda boshlangan bo'lib, shu yili duragaylashga jalb qilingan. Bunda onalik sifatida Aneta F₁ duragayini Dar Toshkenta naviga chatishtirib olingan (♀ Aneta F₁ x ♂ Dar Toshkenta) va Yoqut F₁ geterozis duragayi yaratilgan.

Shirin qalampirning Yoqut F₁ geterozis duragayining kichik nav sinovi ishlari 2020-2021 yillarda, tanlovli stansion sinovlar 2022-2023 yillarda o'tkazildi. "Green Valley seeds" xususiy korxonasi issiqxonalarda stansiyalararo-tanlovli nav sinash ishlari olib borildi (1-2-3-4-rasmlarga qarang).

Yoqut F₁ geterozis duragayi mahsuloti mevasi yangiligicha iste'mol qilinadi va quritilib, ziravor sifatida iste'mol qilish mumkin. Issiqxonalarda doimiy yerga ekish uchun 15-16 sm, 5-6 ta chinbarg chiqargan 50-55 kunlik ko'chatlar ekiladi. Ko'chat qalinligi 1 ga maydon uchun tomchilatib sug'oriladigan sharoitda 35-40 ming tupni tashkil qiladi. Issiqxonalarda ko'chatlar birpoyali qilib o'stiriladi. Ko'chatlar yotib qolmasligi uchun xar xil tirgaklar qo'yiladi. Yuqori hosil olish uchun gektar yer 40-50 tonna orga-